

FAKE NEWS

Ibragimova Noila*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy**kommunikatsiyalar Unversiteti**Xalqaro audio visual jurnalistika fakulteti**teleradio yo'nalishi 4-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Dunyo miqyosida Internet ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan “ Fake news” yolg'on xabarlarini aniqlash va uni kamaytirish va axoliga toza xabarlarini yetkazish.*

Kalit so'zlar: *Fake news, Fake, Xabar, Xalq, Ijtimoiy tarmoq, Rasmiy, Norasmiy, Sayd, Yangilik, Yolg'on.*

“ Fake yangilik “ tushunchasining paydo bo'lishi tarixi haqida gap ketganda, uning ildizlari antic davrlarga borib taqalishi haqida ma'lumotlar bor.

Fake xabar og'izaki kommunikatsiyaning rivojlanishida bunday axborotdan turli qarama-qarshiliklar manfaatlar yo'lida foydalanilgan. Soxta, uydurma axborotning o'zaro so'zlashuvdagi og'zaki ko'rinishi hozir ham saqlanib qolgan va uning ta'sir kuchi zamonaviy “ fayk “ lardan kam emas. Xalq og'izaki ijodining rivojlanishi tufayli “ feyk “ axborotlarning bir qismi ertagu dostonlarga ko'chadi. Xar bir millatning nomoddiy boyligi xisoblangan ertaklari, dostonlari, afsonalarda fitna, yolg'on, uydurmalar orqali ijobiy qahramonlarga qarshi yomonliklar aks etgan. Ular aslida muayyan bir xalqning tabiati, milliy xususiyatlar, turmushtarzining ifodasi bo'lgan. Yozma adabiyot paydo bo'lgandan keyin soxta uydurma axborot aks etgan xolatlar badiiy asarlar mazmunida uchraydi.

Feyk news – (inglisch) soxta, qalbaki degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan foyosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda mashhur insonlar) nomidan ochilgan yolg'on akkauntlar feyklarga misol bo'la oladi.

Axborot platformalarida “ feyk “ atamasi ancha faol aylanmoqda. Qandaydir xabarlarining shov-shuv bo'lib keng rezonansga sabab bo'lishi, biroz muddatdan so'ng esa uning “ feyk “ bo'lib chiqqani haqidagi xabarlar ham tez-tez uchrab turibdi. Shu bois feyk tushunchasini yaxshiroq tanib olish va undan himoyalanih muhim.

Feyk – inglisch “ fake “ so'zining analogi bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ko'pincha 2 xil “ trick “ – quv, ayyor, aldov, yasama, soxta degan ma'nolarda qo'llaniladi. Shu bilan birga ba'zan “ swindle “ – xazil, sho'xlik, xushchaqchalik degan ma'nolarni ham ifoda etadi. Turli manbalarga murojaat qilinganda “ feyk ” so'zining 20 dan ortiq islohi borligiga

guvoh bo‘ldik : soxta, yolg‘on, qalbaki, haqiqiy emas, bo‘xton, aldoqchi, uydirma, noxolis, suniy, uyushtirilgan, ayyor, chalkash, nayrang, ig‘vo xiyla, chalg‘itish kabi so‘lar ana shular jumlasidandir...

Yolg‘on yashik bunday axborotlar jurnalistikada “feyk yangiliklar“ deyiladi. “ Feyk yangiliklar” yer yuzi axolisi qaysi qita, qaysi mamlakatda yashashidan qati nazar deyarli xar bir inson to‘qnash kelish extimoli yuqori bo‘lgan faol media platformadir. Xo‘sh, u qanday platforma? Uni kim qanday joriy etgan, kim tayyorlaydi, kim boshqaradi, Xozirgi axborot almashinuvi jarayonlarida “ feyk yangiliklar” ning o‘rni qanday? U qanday mezonlarga bo‘ysunadi? “feyk yangiliklar”ni xaqqoniy va to‘g‘ri axborotlardan ajratish mumkinmi? Jamiyatni, odamlarni yolg‘on, soxta, uydurma xabarlardan xalos etish uchun nima qilish kerak? Nima sababdan “feyk yangiliklar” zamonaviy media makonning ajralmas qismiga aylanib qoldi? Bundany savollarning tug‘ilishi o‘z navbatida, “feyk yangiliklar” shunchaki axborotning bir turi emas, balki XXI asrda eng ko‘p muxokama qilinayotgan axborotning yangi fenomeni sifatida nazriy va amaliy mohiyatini aniqlash, tadqiq qilishni taqazo etadi. Bu esa tabiiyki, Jurnalistika soxasi mutaxassislarini ham befarq qoldirmaydi. So‘ngi paytlarda zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida olimlar va jurnalistlar, axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar

“ Fake yangiliklar “ muammosi bilan jiddiy shug‘ullanmoqda.

“ FAKE NEWS” o‘zi nimasi bilan insonlar e‘tiborini o‘ziga jalb qiladi? Fake xabarlarni kimlar tarqatadi? Nima sababdan axborotni mahsulot sifatida iste‘mol qiladigan aholi yolg‘on xabarlarga tez aldanib qoladi? Bularga birinchi o‘rinda internetning rivojlanishini misol keltira olamiz. Fake xabarlarni ko‘proq Xalq tili bilan aytganda yolg‘onchilar ishlab chiqaradi. Ular rasmiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishsa ham o‘z sahifalarining prasmotiri uchun uydurma, bo‘hton va yolg‘on fiklar qo‘shishadi va albatta shov shuvga aylantirish uchun rekka chiqarishadi. Fake xabar yozishda faktlardan, rasmiy va ilmiy iboralardan foydalanishmaydi, ular ko‘proq jaydari, xalqchil va ba‘zan axloq qoidaloriga zid so‘zlardan foydalanishadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki- ijtimoiy tarmoqlardan ko‘p foydalanadigan insonlarning ko‘p qismi xalqchil tushunchalrni qabul qiladi. Shu sababdan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto va videolar omma e‘tiboriga xavola etilayotgan materiallar foydalanuvchilar orasida keng muhokama qilinayapti.

Jurnalist va yolg‘on xabar tarqatuvchilar aslida bitta shaxsmi? Yo‘q xar ikkisi ham alohida alohida shaxsdir. Ya‘ni Jurnalistikada Jurnalistik surishtiruv 1-o‘rinda turadi va bu journalist yetkazadigan xabarni sof bo‘lishini ta‘minlaydi. Fake tarqatuvchilar esa asosan yuritadigan blogidan prasmotr evaziga pul topuvchilardir, ularga xabarning sofligidan ko‘ra

prasmotrning ko‘pligi muhim. Shu boisdan ham ular ko‘proq mish-mishlar qo‘shib chiqaradigan xabarlarini o‘z postlariga joylaydilar.

Nima sababdan Fake xabar tez tarqalishiga to‘xtaladigan bo‘lsak: Telekanallarda va rasmiy saytlarda beriladigan xabarlar tekshirilib, rasmiyligi bayonot qilinguncha ijtimoiy tarmoqlarda tezroq tarqaladi va bundan ko‘rinib turibdiki bitta xabarni o‘qigan inson yana o‘sha xabarni qayta o‘qigisi kelmaydi. Tabiiyki birinchi o‘qigan xabari tozalanmagan, surishtirilmagan norasmiy Fake xabar bo‘ladi. Mening fikrimcha yechim sifatida sof, haqiqiy xabarni yengil qilib, ya‘ni alqchil tarzda aholiga tezroq yetkazib berilsa fake ga o‘rin qo‘lmaydi. Shu o‘rinda ayta olamanki berilayotdan xabarlarning rasmiy saytlarini ham ommaga tanitish bir yechim bo‘lgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fake News: Mediada dezinformatsiya. Nozima Muratova, Nazira Toshpo‘latova, Gulnoza Alimova.
2. Journalism, fake news disinformation: handbook for journalism education and training. ЮНЕСКО. 2018.
3. Ильченко С. Н. Фейковая журналистика как элемент современной шоу-цивилизации. -Известия Уральского федерального университета Сер. 1. Проблемы образования, науки и культуры Т. 153. 2016